

“UzAuto Motors” AJda
2024 yil davomida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining amal
qilishi haqida
UMUMIY HISOBOT

I. Tashkilotning Korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar dasturi bajarilgani to‘g‘risida umumiy axborot

“UzAuto Motors” AJning 2024-yildagi Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi” qabul qilinib, unda korrupsiyaga qarshi kurashish, barvaqt oldini olish, unga shart-sharoit yaratuvchi sabab va omillarni bartaraf etishga qaratilgan vazifalar belgilangan.

Dastur ijrosini ta‘minlash yuzasidan mas‘ullar tomonidan quyidagi ishlar amalga oshirilgan:

Komplayensga oid ichki siyosatlarni qayta ko‘rib chiqib, takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish vazifasi belgilanib, asosiy e‘tibor homiylik, xayriya va sovg‘a berish va olish, biznes hamkorlar bilan ishlashga oid va manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq siyosatlarni takomillashtirishga qaratilgan.

Shunga ko‘ra, vazifa ijrosi ta‘minlanib, qayd etilgan siyosatlar yangi tahrirda qabul qilinishi ta‘minlangan.

Dasturning tegishli bandi ijrosi ta‘minlanib, kadrlar zaxirasi shakillantirilgan, vakolatli lavozimlarga nomzodlarni tayinlashda faqat zaxiraga olingan nomzodlar orasidan tayinlash amaliyoti yo‘lga qo‘yilgan.

Elektron hujjat aylanish (“EHA”) tizimida xodimlar bilash ishlash bo‘yicha ma‘lumotlar aks ettirilib, boshqaruvchi xodimlarning 80 foizi bo‘yicha tegishli ma‘lumotlar tizimga yuklangan.

To‘lov qobiliyatini baholab borish, debitor va kreditorlik qarzdorlik bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar, shartnoma shartlarini bajarilishi, mavjud qarzdorliklarni so‘ndirish holati, muddati o‘tgan debitor qarzdorlikni undirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarni onlayn rejimida korxonada standartlariga muvofiqligi o‘rganilib, 2024-yil yanvar-noyabr oylari holatiga debitor qarzdorliklar tahlil qilingan va mas‘ullarga tegishli tavsiyalar berilgan.

Me‘yoridan ortiqcha xom-ashyo va butlovchi qismlar xarid qilinishini oldini olish maqsadida, real ehtiyoj va ombordagi qoldiqlar qiyosiy tahlil qilinib, aniqlangan holatlar yuzasidan mas‘ullarga tegishli ko‘rsatmalar berish haqida xizmat xatlari kiritilgan.

Xarid jarayonlari shaffofligi va qonun talabiga muvofiqligi o‘rganilib, aniqlangan xavflarni bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rilgan.

Tovar-moddiy boyliklar yetkazib berishda logistika xizmati to'g'ri tanlangani, mahalliy va xorijiy logistika xizmatlari bo'yicha tuzilgan shartnomalar o'rganilganda, o'rganishda xarid jarayonida O'zbekiston Respublikasi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonun va ichki me'yoriy hujjatlar talablari buzilishi holatlari aniqlanmagan.

Ishlab chiqarish rejalariga nisbatan xom-ashyo va butlovchi qismlar ta'minoti to'g'ri yo'lga qo'yilgani o'rganilib, mas'ullarga tegishli ko'rsatmalar berilgan.

Tovar-moddiy boyliklarni tegishli tartibda saqlash ahvoli muntazam ravishda o'rganilib, omborlar va mahsulot saqlash joylarida tovar-moddiy boyliklarning standart talablari asosida saqlanishini ta'minlashga qaratilgan ko'rsatmalar berilgan.

Natijasiga ko'ra, mas'ullarga tavsiya va takliflar kiritilgan.

Ishlab chiqarish rejalarini tuzishda resurslardan oqilona foydalanish, sun'iy ravishda me'yoridan ortiqcha yo'qotishlar va yaroqsiz (brak) mahsulot ishlab chiqarilishiga yo'l qo'ymaslik, bunda rentabellik darajasi o'rganilgani holati monitoring qilinib, ortiqcha nomuvofiq (brak) mahsulotlar chiqishini oldini olish va ortiqcha liniya to'xtalishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida ishlab chiqarish rejalarini olib, tahlil qilish va uni amalda bajarishdagi xavflar baholangan.

II. Siyosat va tartib-taomillar

"UzAuto Motors" AJda quyidagi komplayens nazoratiga oid siyosat va protseduralar qabul qilingan:

"UzAuto Motors" AJ Kuzatuv kengashi majlisining 2022-yil 18-oktyabrdagi 16-2022-sonli Bayoni bilan:

1. "UzAuto Motors" AJning poraxo'rlik va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha siyosati yangi tahrirda;
2. "UzAuto Motors" AJning korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyoti;
3. "UzAuto Motors" AJning manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha siyosati yangi tahrirda;
4. "UzAuto Motors" AJning aloqa kanallari orqali qoidabuzarliklar to'g'risida kelib tushgan xabarlarini qabul qilish va ko'rib chiqish reglamenti;
5. "UzAuto Motors" AJda xodimlarining etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'qitilishini tashkil qilish bo'yicha yo'riqnomasi;

6. "UzAuto Motors" AJning biznes hamkorlarini kompleks tekshirish protsedurasi yangi tahrirda;

7. "UzAuto Motors" AJga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha yo'riqnoma;

8. "UzAuto Motors" AJ korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish uslubiyoti;

9. "UzAuto Motors" AJda korrupsiyaga qarshi kurash tizimining holati to'g'risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo'yicha nizom;

10. "UzAuto Motors" AJning xizmat tekshiruvlarini o'tkazish protsedurasi yangi tahrirda;

11. "UzAuto Motors" AJning biznes hamkorlarning odob-axdoq kodeksi yangi tahrirda;

12. "UzAuto Motors" AJ xayriya va tijorat xomiyligi bo'yicha siyosati yangi tahrirda;

13. "UzAuto Motors" AJ jinoyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga (yuvishga) va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish siyosati yangi tahrirda;

14. "UzAuto Motors" AJ sanksiyalar va eksport nazorati siyosati yangi tahrirda;

15. "UzAuto Motors" AJ sovg'alar, mehmondo'stlik, o'yin-kulgi va sayohat qilish protsedurasi;

16. Korrupsiya haqida xabar bergan xodimlarni rag'batlantirish hamda sovg'alar siyosati bo'yicha nizom.

2023-yil 27 noyabrdagi 23VV-00782-son buyrug'i bilan:

1. "UzAuto Motors" AJ xodimlarining odob-axloq qoidalari;

2. "UzAuto Motors" AJ odob-axloq komissiyasi to'g'risidagi nizom qabul qilingan.

III. Xavf-xatarlarni baholash

"UzAuto Motors" AJ tomonidan korrupsiyaviy xavf-xatarlar quyidagi sohalar bo'yicha tahlil qilingan:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.05.2022-yildagi "Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-240-son Qarori asosida "UzAuto Motors" AJning korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi, korrupsiyaga qarshi kurash dasturi hamda korrupsiya xavfiga eng ko'p moyil bo'lgan funktsiya va lavozimlar ro'yxati shakllantirildi.

Hisobot davrida jamiyatning barcha lavozimlar bo'yicha belgilangan vazifalardagi korrupsion xavflar yuqori (18 ta), o'rta (4 ta), past (2 ta) darajali ekanligi baholandi.

Baholash natijalaridan kelib chiqib, malakali mutaxassislar xavotirsiz faoliyat ko'rsatishiga imkoniyat yaratish, korrupsion xavfi yuqori lavozimdagi xavflarni minimallashtirish maqsadida, 7 ta ichki idoraviy (lokal) hujjatlarga berilgan tavsiyalar asosida tegishli o'zgartirishlar kiritildi.

2024-yilda "UzAuto Motors" AJning 63 nafar korrupsiyaviy xavf-xatari yuqori bo'lgan lavozim va vazifada ishlovchi hamda komplayens xizmati xodimlari ISO talablari bo'yicha o'qitilib sertifikatlar berildi.

Bu bilan, xavflar yuqori (2 ta) va xavfi o'rta (4 ta) funksiyalar xavfi pastga tushirilib, xavfi past (2 ta) funksiyalar xavfi ko'tarilmasligi choralari ko'rildi.

"UzAuto Motors" AJ mehnat shartnomalariga korrupsion xavflar, manfaatlar to'g'nashuvini oldini olish bo'yicha bандlar kiritilib, qo'shimcha shartnoma tuzish orqali ogohlantirildi va ehtimoliy xavflarni oldini olishga qaratilgan choralar ko'rildi.

Siyosat va standartlar qayta ko'rib chiqilib, amaldagi qonunchilik va alyans shartlaridagi yangi talablarga muvofiqlashtirish bo'yicha tahliliy o'rganishlar olib borildi.

Jumladan, ichki lokal hujjatlarni takomillashtirish maqsadida "Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqacha tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish tartibi to'g'risida"gi Nizom loyihasi ishlab chiqildi.

IV. Amalga oshiriladigan korrupsiyaga qarshi kurashish tartib taomillar

Manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yilmasligi

Jamiyatda xodimlarni ishga olish va ish joyini o'zgartirish jarayonida manfaatlar to'qnashuvining ehtimoliy xavflari muntazam ravishda tahlil qilib borilmoqda.

O'tgan yilda 2.555 nafar xodimga boshqa doimiy ishga o'tkazish jarayonida manfaatlar to'qnashuvi deklaratsiyasi to'ldirilgan bo'lib, 22 nafarida potensial, 5 nafarida real manfaatlar to'qnashuvi holati aniqlangan, tegishli choralar ko'rilgan.

O'z navbatida, manfaatlar to'qnashuvi bir-biriga bo'ysunuv asosida faoliyat yurituvchi xodimlar o'rtasida aniqlangan holatlarda, tegishli choralar ko'rilgan.

Shu kabi, jami 598 nafar xodimlar ishga qabul qilingan bo'lib, ular o'rnatilgan tartibda manfaatlar to'qnashuviga oid deklaratsiyani to'ldirgan, mazkur holatlarda, "UzAuto Motors" AJga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha" Yo'riqnoma talablari buzilmagan.

Korrupsiyaga qarshi qoidalarni tashkilot shartnomalariga kiritish

Jamiyat va tizim korxonalarida barcha shartnomalarida korrupsiyaga qarshi shartlar kiritilishi qat'iy ta'minlangan, bundan "e-xarid" elektрон savdo platformasida tuziladigan shartnomalar mustasno.

Hozirgi kunda, kontragent tomonidan korrupsiyaga qarshi qoidalar buzilishi sababli, shartnomalarni bekor qilish holatlari kuzatilmagan.

Kontragentlarni tekshirish

2024 yil davomida "UzAuto Motors" AJda 334 ta kelishuv hujjatlari kelib tushib, bunda 298 ta ijobiy va 36 ta salbiy (sanksiya – 30, manffatlar to'qnashuvi – 6) xulosalar berilgan.

Ishga nomzodlarni tekshirish

2024-yil davomida "UzAuto Motors" AJda 598 nafar ishga kirishga nomzodlar bo'yicha tekshiruvlar o'tkazilib, ularning 596 nafariga ijobiy xulosa berilgan, 2 nafar salbiy xulosa berilgani ishga qabul qilinmagan.

V. Ta'lim va kommunikatsiya

Jamiyat xodimlari o'rtasida komplayensga doir tartib-taomillarni targ'ib qilish, tanishtirish, o'qitish (ta'lim) va rioya etilishini ta'minlash borasida bir qator ishlar qilingan.

Masalan, xodimlarga qulaylik yaratish, ularning vaqti va korxonada mablag'larini tejash, zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish maqsadida, komplayensga oid siyosatlar bilan barcha xodimlar tanishishi uchun hujjatlarni elektron hujjatlar aylanish tizimiga joylashtirish, shuningdek tegishli sertifikatga elektron imzo qo'yish haqida taklif kiritilgan.

Takliflar mas'ullar tomonidan ko'rib chiqilib, EHA tizimi takomillashtirildi va komplayensga oid siyosatlar tizimga joylangan.

Natijada, xodimlar siyosatlar bilan elektron tarzda tanishib, elektron imzolari orqali bu holatni tasdiqlab, faoliyatda qo'llab bormoqdalar.

Hisobot davrida, **5.929** nafar xodimlar komplayens siyosatlari bilan rasman tanishtirilib, mazmuni tushuntirilgan.

O'z navbatida, ushbu amaliyot mas'ul davlat organlari tomonidan ijobiy ish tajribasi sifatida e'tirof etilgan.

Shuningdek, jamiyatning 5.929 nafar xodimlariga korrupsiyaga qarshi kurashishga oid qonunchilik va komplayens siyosatlarining mazmun-mohiyati bo'yicha o'quv mashg'ulotlari tashkil etilgan.

Xususan, jamiyat Bosh direktorining 30.09.2024-yilgi "Komplayens siyosatlari bo'yicha o'qitish tashkil etish haqida"gi 30-00555-sonli buyrug'i qabul qilinib, jamiyat xodimlari korrupsiyaga qarshi kurashishga oid qonunchilik va komplayens siyosatlari bo'yicha oflayn shaklda Komplayens xizmati xodimlari tomonidan o'qitilgan.

Jamiyat xodimlarini komplayensga oid siyosatlariga o'qitish, uarga mavjud tartib-taomillar tushuntirish vazifasi ustuvor ahamiyat berib kelinmoqda.

Ichki idoraviy (lokal) hujjatlari takomillashtirilib, komplayensga oid siyosat talablarining buzilishi tegishli intizomiy javobgarlikni keltirib chiqarishi jamiyatning "Ichki mehnat tartib" Qoidalarida mustahkamlangan.

Bundan tashqari, jamiyat faoliyati samaradorligini oshirish va ishlab chiqarish uzluksizligini ta'minlashga qaratilgan boshqa ishlar davom ettirilmoqda.

Shuningdek, OAVlarda "UzAuto Motors" AJ rahbariyati tomonidan jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi holati yuzasidan hisobotlar berish yoki chiqishlar amalga oshirildi.

"UzAuto Motors" aksiyadorlik jamiyati faoliyatining ochiqligini ta'minlash, jamoatchilik va fuqarolar oldida hisobdorligini ta'minlash, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi faoliyati bilan tanishtirish hamda ommaviy axborot vositalari va fuqarolar bilan muloqot o'rnatish maqsadida 2024-yilning 6-dekabr kuni "9-dekabr – xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni" munosabati bilan "Ochiq eshiklar kuni" tadbiri o'tkazildi.

Tadbirda jamiyat xodimlari, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Huquqni muhofaza qilish akademiyasi, Turin politexnika universiteti hamda ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.

Ishtirokchilarga avtomobilsozlik sohasida, xususan jamiyatda keng miqyosda amalga oshirilgan islohotlar, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi va uning natijadorligi hamda ochiqlikni ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar xaqida taqdimot o'tkazilib, batafsil ma'lumot berildi.

Bugungi kunda, jamiyatning Komplayens xizmatida jami jami **29 nafar** malakali va tajribali mutaxassislar faoliyat olib borib, ISO 37001:2016 "Korrupsiyaga qarshi kurashish menejmenti tizimi" xalqaro standartiga muvofiq "Korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimining menedjeri / ichki auditori" sertifikatini olgan.

Shuningdek, Komplayens xizmati tomonidan jamiyatning mas'ul lavozimlarida faoliyat olib borayotgan **60** nafar rahbar va hodimlar uchun ham ISO 37001:2016 xalqaro standarti bo'yicha mahsus o'quv kursini o'tashlari ta'minlandi va ular muvaffaqiyatli yakunladi.

VI. Korrupsiyaviy xatti-xarakatlar va huquqbuzarliklar to'risidagi xabarlar

Korrupsiyaviy xatti-xarakatlar va huquqbuzarliklar to'risida ma'lumot "O'zavtosanoat" AJ aloqa kanallari orqali xabarlar kelib tushmagan.

VII. Monitoring va nazorat

Idoraviy korrupsiyaga qarshi tizimining aktualligi va uning qonunchilik talablari, shu jumladan, xalqaro standartlar talablariga muvofiqligi monitoringi;

OAV monitoringi;

Tashkilot xodimlarining korrupsiyaga qarshi asosiy tamoyil va talablardan xabardorligi monitoringi;

Korrupsiyaga qarshi dasturlar, yo'l xaritalari ijrosi ustidan nazorat;

Tashkilotdagi korrupsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarga rioya etilishi ustidan nazorat.

VIII. Aniqlangan qoidabuzarliklar va ularga ta'sir choralari

"UzAuto Motors" AJ Komplayens xizmati tomonidan 2024 yilda jami 44 ta xizmat tekshiruvlari o'tkazilib, 24 ta holatda to'plangan hujjatlar huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuborilgan va 9 ta holatda jinoyat ishlari qo'zg'atilgan, qolgan holatlarda 101 nafar aybdor xodimlar intizomiy javobgarlikka tortilgan.

IX. Xulosalar

Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan asosiy chora-tadbirlar bu:

Biznes reja bajarilishini nazoratga olish;

Tannarxni kamaytirish;

Jarayonlarni avtomatlashtirish;

Komplayens xizmati faoliyatini rivojlantirish;

Idoraviy korrupsiyaga qarshish tizimining aktualligi va uning qonunchilik talablari, shu jumladan, xalqaro standartlar talablariga muvofiqligi monitoringi;

OAV monitoringi;

Tashkilot xodimlarining korrupsiyaga qarshi asosiy tamoyil va talablardan xabardorligi monitoringi;

Korrupsiyaga qarshi dasturlar, yo'l xaritalari ijrosi ustidan nazorat;

Tashkilotdagi korrupsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarga rioya etilishi ustidan nazoratga olish hisoblanadi.

Mazkur yo'nalishlar bo'yicha xizmat o'z ishini sifatli bajarib kelmoqda.

Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid qonunchilik talablaridan kelib chiqib, ichki idoraviy hujjatlar takomillashtirgan.

Komplayens xizmati xodimlari bilim va ko'nikmalari tizimli ravishda oshirib borilmoqda.

X. Korrupsiyaga qarshi kurash tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha takliflar va tadbirlar rejasi

2024 yil davomida amalga oshirilgan chora-tadbirlardan kelib chiqib, quyidagilar **taklif** qilinadi:

- korxonada korrupsiyaga oid qonunchilik va komplayens siyosati talablariga rioya etilishini yanada jonlantirish, bu boradagi targ'ibotlarni kuchaytirish va kelgusida boshqa xodimlar tomonidan avval aniqlangan salbiy holatlar sodir etilishini oldini olish maqsadida, ichki elektron pochta va "intercom" platformasida Komplayens xizmati tomonidan aniqlangan holatlar bo'yichsa qisqacha ma'lumotlar berib borish amaliyotini yo'lga qo'yish;


- "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonun qabul qilingani munosabati bilan komplayensga oid siyosatlarni qayta ko'rib chiqib, mazkur Qonun talablariga muvofiqlashtirish;

- 2024-yilda xavf "yuqori" va "o'rta" bo'lgan funksiyalarni "past" darajaga tushirish choralarini ko'rish;

- korrupsiyaga qarshi kurashishga oid qonunchilik va komplayens siyosatlarining mazmun-mohiyatini tushuntirish bo'yicha tashkil etilgan o'quv jarayonlariga jalb etilgan xodimlar ko'lamini kengaytirish;

- aniqlangan korrupsion xatti-harakat va holatlar yuzasidan ommaviy axborot vositalariga xabarlar berib borish.

**"UzAuto Motors" AJ
Komplayens xizmati
rahbari**



M.N. Xakimov

“UzAuto Motors” AJda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holati to‘g‘risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo‘yicha nizomga 3-ilova

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha davlat dasturida rejalashtirilgan tadbirlarni amalga oshirish to‘g‘risidagi

H I S O B O T

T/r	Tadbirlar nomi	Bajarish muddati	Amalga oshirilgan choralar*
-	-	-	-

*** Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha 2024-yil davlat dasturida “UzAuto Motors” AJ mas‘ul bo‘lgan tadbirlar rejalashtirilmagan.**

“UzAuto Motors” АЖДа коррупцияга қарши курашиш тизимининг ҳолати тўғрисидаги ҳисоботни шакллантириш ва тақдим этиш бўйича низомга 7-илова

Жамиятнинг алоқа каналлари орқали коррупцияга оид келиб тушган хабарларини рўйхатга олиш РЕЕСТРИ*

Т/р	Мурожаат санаси	Мурожаат тоифаси (коррупциявий хатти-ҳаракат, манфаатлар тўқнашуви)	Мурожаат рўйхатга олинган сана ва рақам	Хабар юборилган алоқа канали	Хабарнинг қисқача мазмуни	Хабар таалуқли бўлган тузилма	Қўриб чиқиш натижаси	Мурожаатчига жавоб юборилган сана ва хат рақами	Ижрочи	Хабарни қўриб чиққан тузилма раҳбари	Изоҳ
-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-

* 2024 йил давомида алоқа каналлари орқали коррупцияга оид хабарлар келиб тушмаган.

Изоҳ: жамиятнинг Комплаенс хизматига 2024 йилда коррупцион ҳолатлар юзасидан жами **7 та мурожаат** (хабар)лар келиб тушган бўлиб, улар жамият мол-мулкани талон-торож қилиш (4) ва моддий манфаатдор бўлиш мақсадида пул талаб қилиш (3) мазмунида бўлган.

Юқорида қайд этилган барча ҳолатлар юзасидан хизмат текшируви ўтказилиб, тўпланган ҳужжатлар қонуний қарор қабул қилиш учун ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органларга юборилган.

Натижада, **1 та** ҳолатда **жиноят иши қўзғатилган** (ЖК 167-м), **2 та** ҳолатда жиноят иши қўзғатиш рад этилган (зарар бартараф этилган) ва **4 та** ҳолатда терговга қадар текшириш ҳаракатлари давом этмоқда.

Шунингдек, юқоридагилардан ички идоравий ҳужжат ва комплаенс сиёсатлари бузилган **6 та** ҳолатда айбдор ходимлар интизомий жазо тариқасида ишдан бўшатишган.